

TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI

Ergasheva Shaxista Abduragim qizi

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Muzei
menejmenti va madaniy turizm yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nafaqat o'zbek xalqi, balki qardosh xalqlar uchun ham tarixda alohida o'ringa ega bo'lgan Sohibqiron bobokalonimiz Amir Temur hayot yo'li hamda Temuriylar tarixi davlat muzeyi haqida ma'lumotlar va muzey faoliyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Muzei faoliyati, YUNESKO tashkiloti, Sohibqiron Amir Temur, ilm-fan, savdo va hunarmandchilik, muzey eksponatlari..*

Mazkur muzey Toshkent shahri Amir Temur xiyoboni yaqinida bunyod etilgan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996 yilda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida bunyod etilgan. Muzeyni tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14-martdagi 99-sonli qarori qabul qilingan.

Muzeyning asosiy maqsadi Amir Temur va temuriylar davrida ilm – fan, maorif va madaniyatning yuksak darajadagi taraqqiyotini haqqoniy aks ettirish va keng targ'ib qilish, chuqur insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan tarixiy yutuqlarimiz va an'analarimiz asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir.

Muzei fondining asosiy qismi Amir Temur va temuriylar davriga oid qo'lyozma asarlar, turli davlatlar hukmdorlari bilan olib borilgan yozishmalar, tangalar, sopol va mis buyumlar, me'moriy bezak qoplamalari, kitoblar, etnografik buyumlar, yurtimiz rassomlari asarlari kabi nodir eksponatlardan iborat. Eksponatlarning soni esa 2,5 mingdan oshadi. Ayni paytda muzey zallaridagi "O'zbekistonda yozuv madaniyati va tarixi", "Shohruhiya qal'a-shahri", "Xorijdagi merosimiz", "Amir Temur-Klavixo-Samarqand", "Amir Temur hayotidan lavhalar", "Amir Temur va temuriylar davri - rassomlar nigohida", "Amir Temur va temuriylar davri tarixi olimlar va yozuvchilar nazarida" kabi ko'rgazmalarda 1,5 ming eksponat namoyish etilmoqda. Yaqinda "Temuriylar tarixi davlat muzeyi 10 yoshda" mavzuidagi yangi ekspozitsiya ochildi. U 1996- yilda butun dunyo bo'ylab taniqli bo'lgan buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz tavalludining 660 yilligi sharafiga ochilgan. Muzeyning uch qavatli yumaloq binosi gumbaz bilan klassik sharqona uslubda bezatilgan. Binoning ichki qismi marmar, noyob rasmlar, betakror naqshlar va oltin suvi bilan bejirim bezatilgan.



Zallar devorlarida Amir Temurning hayoti, shuningdek o'sha davrlarning atmosferasini aks ettiruvchi rasmlar freska tarzida aks etgan. Muzeyning eng maftunkor qismi - balandligi 8,5 metr bo'lgan billur qandil bo'lib, undagi 106 ming marjon ko'zlarni qamashtiradi. Muzey eksponatlari tashrif buyuruvchilarga Temuriylar sulolasi davrida O'zbekiston tarixi haqida ma'lumot beradi. Hozirgi kunda esa muzey fondida 3 mingdan ortiq eksponatlar mavjud. Bu yerda o'rta asrlarga oid zargarlik buyumlarini, kiyim-kechaklarni, musiqa asboblari, mehnat anjomlari va boshqa buyumlarni ko'rishingiz mumkin. Musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lgan Usmonning Qur'on nuxasi markaziy zalda saqlanadi. Muzey ekspozitsiyasida Amir Temur va uning avlodlarining Yevropa mamlakatlari monarxlar bilan bo'lgan ko'plab yozishmalari, buyuk sarkarda tasvirlangan rasmlar, miniatyuralar, mamlakatimizda Temuriylar sulolasi tomonidan qurilgan mashhur inshootlarning maketi joy olgan. Samarqand Registon shahri maketi va boshqa shahar maketlari saqlanadi. Temuriylar sulolasi tarixi hammasi mavjud. Temur tuzuklari kitoblari ham saqlanmoqda.

Muzeyga marmar zinalar orqali bosh tarzi (Amir Temur xiyobonidan)dagi 3 eshikdan kiriladi. 14 ta yog'och o'ymakorligidagi eshik o'ziga xos. Atrofi peshayvonli, qator ustunli (20 ta, bal. 10 m, muqarnas boshali, poyustuni kulrang marmardan ishlangan), turunjilari sirkori sopol bilan bezatilgan, binoning tashqi devori yuzasida "suls" uslubida insonni yaxshilikka undovchi so'zlar bitilgan. Bino asosida foye, magazinlar, ma'muriyat, vestibyul, kassa, axborotma'ruza zali va boshqa texnik xizmat xonalari joylashgan. 1qavatda ko'rgazma va kinoleksiya zali (200 o'rindiqli) bor. 2qavatdagi ko'rgazma zali 8 bo'limdan iborat. Ko'rgazma zalidagi Temuriylar tarixiga oid noyob eksponatlar O'zbekiston viloyatlaridagi yirik muzeylardan keltirilgan, shuningdek, 1996 yilda Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ko'rgazmadagi eksponatlar ham muzeyga o'tkazilgan. Muzeyda arxeologiya, etn., numizmatika yodgorliklari, qo'lyozmalar, tasviriy san'at namunalari bor. Shuningdek, I. Karimovning Amir Temurga bo'lgan hurmatini ifodalovchi dil so'zlari va "Temur tuzuklari"dan keltirilgan iboralar eksponatlarni mazmunan boyitgan.

Ko'rgazma zalining markazidagi devoriy tasvirdan "Buyuk Sohibqiron — buyuk bunyodkor" nomli 3 qismdan iborat asar o'rin olgan. Birinchisi — "Tug'ilish" qismida Sohibqironning tug'ilishi bilan bog'liq urfodatlar ramziy tasvirlarda ifodalangan. Ikkinchisi — "Yuksalish"da "Rosti-rasti" ("To'g'rilik najotdir") degan shior oltin harflar bilan bitilgan. Bu qismning markazida taxtda o'tirgan Sohibqironning vazir, ulamo, harbiy a'yonlar davrasidagi mashvaratlari aks ettirilgan. Pastroqda esa Sohibqironning nabira va abiralari (Muhammad Sulton, Ulug'bek, Husayn Boyqaro,



Zahiriddin Muhammad Bobur) bobolaridan meros qolgan tuzuklarni mutolaa qilayotganlari va Amir Temur yaratgan me'moriy obidalar tasvirlangan. Uchinchi — "Faxrlanish" bo'limida merosning avloddanavlodga o'tib kelayotganlik g'oyasi o'z aksini topgan. Muzeyga har yili 100 mingdan ziyod tomoshabin kiradi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi Sohibqiron Amir Temur shaxsiyatiga nisbatan yurtimizda tarixiy adolat tantana qilganining yana bir amaliy isbotidir. Bu muzeyda bizning o'tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoli ko'zguda aks etgandek namoyon bo'ladi. Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.

Yuqoridagi so'zlar – Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochilgan kunda, ya'ni 1996 -yil 18-oktabrda «Faxriy mehmonlar kitobi»ga yozgan tarixiy dastxati...

Amir Temur ham, Islom Karimov ham tarix sahnasiga chiqib, nafaqat elimizni mustamlakachilar istibdodidan ozod qildi, balki xalqimizning g'ururini tiklash, dunyoda qudratli davlatga asos solish, tinchlik, bunyodkorlik, barqarorlik va farovonlik yo'lida kurashishdek juda og'ir va murakkab vazifani sharaf bilan ado etdi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviy tiklanish va yangilanish islohotlarini ulug' ajdodlarimiz, xususan, Amir Temur bobomizning muborak nomi, boy merosi, xotirasi va tarixiy siymosini tiklash asosiga qurdi.

– Mustaqillikning ilk yillarida Islom Karimov keng jamoatchilikka, tarixchi olimlarga murojaat etib, Amir Temur bobomiz nomini abadiylashtirish masalasini qo'ydi, – deb eslaydi Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi raisi, tarix fanlari nomzodi Nozim Habibullayev. – «Xalqimiz Sohibqiron bobomizning buyuk bunyodkorliklarini anglab, shundan ma'naviy kuch-quvvat olsa, dunyo jamoatchiligi Amir Temurni nafaqat eng qudratli davlat asoschisi, balki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat homiysi, o'z vaqtida Osiyo va Yevropa qit'alarida ro'y bergan tarixiy o'zgarishlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan buyuk shaxs ekanini bilsa, tarixiy adolat qaror topar edi», dedi. Prezidentimiz bu borada uch g'oyani taklif etdi: xalqaro hamjamiyatga Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatini tanitish, Xalqaro Amir Temur jamg'armasini tuzish, Sohibqiron va temuriylar davrini aks ettirgan muzey barpo etish.

Eng katta muammo – jahon jamoatchiligining fikrini o'zgartirish edi. Sobiq tuzum davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga biryoqlama baho berilgan, buning asoratini davolash oson emasdi. Boz ustiga, YUNESKO katta sarkardalarning



yubileyini nishonlamas edi... Islom Karimov ortga chekinmadi, YUNESKO rahbariyatiga «Amir Temur boshqa sarkardalardan farqli ravishda bunyodkor shaxs bo'lgan, qay joydan bir g'isht olsa, o'rniga o'n g'isht qo'ydirgan, bir daraxt kesdirsa, o'rniga o'n ko'chat ektirgan, Sohibqironning dunyoda tinchlik o'rnatish, Yevropani xalos etishdagi xizmatlarini, insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini dunyoga isbotlab beramiz», dedi.

Dastavval «Amir Temur – jahon tarixida» qomusiy kitobi tayyorlandi. Prezidentimiz kitob qo'lyozmasini o'qib berdi. 1996- yili kitob xorij tillariga tarjima qilingach, xalqaro jamoatchilik va dunyo tarixchilarining katta qiziqishiga sabab bo'ldi. YUNESKO Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash haqida qaror qabul qildi. 1996- yil mamlakatimizda Amir Temur yili, deb e'lon qilindi, yurtimiz bo'ylab bu ulug', uzoq kutilgan kunga tayyorgarlik boshlandi.

1996 yil 24 -aprelda Parij shahrida «Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» haftaligi boshlandi. O'sha kuni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov YUNESKO Ijroiya kengashi sessiyasida, YUNESKO qarorgohida temuriylar davriga bag'ishlangan ko'rgazma ochilishida nutq so'zladi. Yurtdoshlarimiz yaxshi eslaydi: ko'rgazma boshlanishiga ozgina vaqt qolganda, zalga kutilmaganda Fransiya Prezidenti Jak Shirak kirib kelgan. Islom Karimov Jak Shirakni ekspozitsiya bo'ylab aylantirib, Amir Temurning insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqida zavq bilan so'zlab bergan. O'shanda Jak Shirak «Islom Karimovdek o'z Vatani tarixini bunchalik mukammal biladigan, ulug' ajdodlari nomini bunday yuksak e'zozlaydigan davlat rahbari dunyoda kamdan-kam bo'ladi», deb qoyil qolgan. Fransiya Prezidenti O'zbekiston rahbariga yuksak hurmat ifodasi sifatida Amir Temurning 1402 yili Fransiya Qirolu Sharl VI ga yo'llagan nomasini taqdim etgan. Bu eksponat bugun Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi eng noyob tarixiy hujjatlardan hisoblanadi. Aynan mana shu tarixiy haftalikda Birinchi Prezidentimizning jasorati va fidoyiligi bois dunyo ahli Parijda nima uchun XV asrdayoq Amir Temurga yodgorlik o'rnatilib, unga «Yevropaning xaloskoriga» degan chuqur ramziy ma'noli so'zlar bitilganini, Sohibqiron xizmatlari tufayli Osiyo va Yevropa tarixda birinchi marta yagona jo'g'rofiy-siyosiy makonda birlashganini teran angladi – jahon Amir Temurni buyuk bunyodkor sifatida tan oldi.

1996- yil 14 -martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilingach, Birinchi Prezidentimiz bu muzey me'moriy shakli, tuzilishi haqida me'morlar, tarixchilar, ijodkorlar va ziyolilar bilan kengashdi. O'shanda Islom Karimov bu muzey saroy va toj shaklini ifoda etishi, mamlakatimiz arxitektura san'atida durdona asar bo'lishi kerakligini aytdi. Qurilish ishlari jadal boshlandi.



Prezidentimiz bu yerga tez-tez kelar, muzey qurilishidagi har bir detalga qiziqib, so'rab-surishtirar va har gal uning me'moriy yechimida hal qiluvchi fikrlarni aytar edi. Shu bois muzey juda qisqa vaqtda – sakkiz oyda bunyod etildi. Muzeyga kelgan har bir yurtdoshimiz, ayniqsa, yoshlar bu yerdagi har bir detalni tayyorlashga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bosh-qosh bo'lganini yoddan chiqarmasligi kerak. Muzey dastlab ishga tushgan vaqtda bu dargohga kirib chiqqan yoshlarning qiyofasini ko'p kuzatardim: o'z tarixini, qanday ulug' zotlarning avlodi ekanini bilgan nigohlardagi hayratni ko'rsangiz... Bu yil Gollandiyada Amir Temur merosiga bag'ishlangan xalqaro anjumanda qatnashdik: 20-25 davlatdan yirik tarixchi olimlar ma'ruza qildi, birinchi marta ularning hech biri «Tamerlan» so'zini tilga olmadi. Bu – dunyo Amir Temurni buyuk bunyodkor shaxs sifatida to'la tan olganining yana bir amaliy isboti. Bu – Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Sohibqiron shaxsini abadiylashtirish borasidagi ko'p yillik kurashlarining amaliy natijasi. 1996- yil 18 - oktabr sanasi chindan ham xalqimiz tarixida unutilmas bayram bo'lgan. O'sha kuni Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida Amir Temur haykallari ochilgan, bu muazzam shaharlar Amir Temur ordeni bilan mukofotlangan. Barcha tadbirda Birinchi Prezidentimiz qatnashib, nutq so'zlagan.

Yillar, asrlar o'tadi. Xalqimiz omon ekan, mamlakatimiz shon-shavkatini yuksaltirish, xalqimiz turmushini farovon etish, farzandlarimiz kamoloti yo'lida kurashgan Amir Temur va Islom Karimov nomlari yonma-yon tilga olinaveradi. Zotan, xalqimizning tinch, to'kin va barqaror hayoti, yorug' kelajagi yo'lida fidoyilik va jasorat ko'rsatgan Xaloskor qahramonlar nomi haqli ravishda abadiyatga daxldordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO 'YXATI:

1. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari. Toshkent "Ma'naviyat" 2008
2. Muzey ashyolarining ekspertizasi va restavratsiyasi. J.Z.Axmedov. O 'quv qo 'llanma
3. Muzey ishi asoslari. Darmon Kuryazova. O 'quv qo 'llanma.
4. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. J.X. Ismoilova. M.S. Muxamedova. O 'quv qo 'llanma.

